



Some comments on the conversion of archaeological monuments located in the territory of the city of Kuvasoy into places of cultural tourism

Bunyodbek TALABJONOV¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

15 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

tourism,
cultural heritage,
Kuvasoy,
Sufon,
Yokori Muyantepa,
archaeology,
Great Sufon,
expertise.

ABSTRACT

The Fergana Valley is one of the most beautiful and culturally rich regions of Uzbekistan, boasting numerous historical and cultural heritage sites. This article examines the existing cultural heritage objects in the Fergana region, as well as the archaeological monuments located within the city of Kuvasoy. It also evaluates their current state, emphasizing their significant role in enhancing the region's tourism potential.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss11/S-pp7-11>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Quvasoy shahri hududida joylashgan arxeologik yodgorliklarni madaniy turizm maskanlariga aylantirish borasida ayrim mulohazalar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

turizm,
madaniy meros,
Quvasoy,
Sufon,
Yuqori Muyantepa,
arxeologiya,
Katta Sufon,
ekspertiza

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng go'zal va madaniy jihatdan boy mintaqalaridan biri bo'lib, u ko'plab tarixiy va madaniy meros obyektlariga ega. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatida mavjud madaniy meros obyektlari hamda Quvasoy shahri hududida joylashgan arxeologik yodgorliklar va ularning ahvoli tahlil qilinib, ularning hududda turizm salohiyatini oshirishdagi ahamiyatli tomonlari yoritilgan.

¹ PhD Candidate, Fergana State University. E-mail: talabjonovb@gmail.com

Некоторые комментарии по превращению археологических памятников, расположенных на территории города Кувасой, в места культурного туризма

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

туризм,
культурное наследие,
Кувасай,
Суфон,
Юкори Муйантепа,
археология,
Большой Суфон,
экспертиза.

Ферганская долина – один из самых красивых и культурно богатых регионов Узбекистана, где сосредоточено множество памятников исторического и культурного наследия. В данной статье рассматриваются объекты культурного наследия Ферганской области, включая археологические памятники города Кувасай. Также проводится анализ их состояния и значимости в контексте повышения туристического потенциала региона.

KIRISH

Farg'ona vodiysi tarixan turizm va savdo yo'llarining o'rtasida joylashgan. Bu yerda ko'plab tarixiy joylar, madaniy obidalar va an'analar mavjud bo'lib, ularning aksariyati qadimiyligi bilan mashhurdir. Xususan, Farg'ona viloyatida 376 ta madaniy meros obyektlari muhofazaga olingan bo'lib, ulardan 117 tasi arxeologiya, 139 tasi arxitektura, 32 tasi monumental san'at yodgorliklari va 88 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi [2:1]. Yuqoridagi raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, arxeologik obyektlarning salmog'i balandroq ekanligini ko'rishimish mumkin. Tarixiy-madaniy turizm tarmoqlari ichida arxeologik turizm eng serdaromad yo'nalish sifatida AQSh, Isroil, Misr va Gretsiya singari davlatlarda rivojlanganligini hisobga oladigan bo'lsak, turizmning ushbu yo'nalishida istiqbolli natijalarga erishilsa bo'ladi [5:15].

Shunga qaramay viloyatning ko'plab arxeologik manzilgohlarida madaniy-turizm salohiyatini yuzaga chiqarish va oshirish borasida yetarlicha chora-tadbirlar amalga oshirilmayotgani ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, Farg'ona viloyatining sanoat shahri bo'lgan Quvasoyning turizm salohiyatini oshirishda madaniy meros obyektlari muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Quvasoy nafaqat sanoat shahri, balki ushbu maskanda qator an'anaviy me'morchilik namunalari va madaniy obyektlar mavjud bo'lib, hududda turizmni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Shaharning tabiiy manzaralari, ayniqsa tog'li hududlarga yaqin joylashuvi ekoturizmni rivojlantirish, ya'ni madaniy obyektlarni tabiiy manzaralar bilan uyg'unlashtirib sayyohlik yo'nalishlarini yaratish imkoniyatlarini yaratadi. Quvasoy shahrida jami 8 ta madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan bo'lib, ulardan 7 tasi (Yuqori Muiyantepe, Sufon qabrlari, Arktepa, Oqtepa, Chuntepa, Qaramqul qabristoni va Katta Sufon) arxeologik yodgorliklar hisoblanadi. Quvasoy shahar Sufon mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan Sufon arxeologik yodgorligi Farg'ona shahridan 15 km shimoliy-sharqiy tomonda va Sufon qishlog'iga 3 km yaqin joyda joylashgan. Yodgorlik joylashgan tepalik Farg'ona vodiysining sharqiy qismiga cho'zilgan adirlar tizimida joylashgan tekis platodan iborat. Tepalikda qadimiy tosh mozorlar joylashgan. Qo'rg'onlar ikkita maydonda joylashgan, yuqoriroqda tuproq va toshdan bo'lgan 3 ta qo'rg'on mavjud. Shu qo'rg'onlar guruhining 300 metr g'arb qismida kattaroq hajmdagi 8 ta qo'rg'on joylashgan.

2019-yilda O'zbekiston FA Arxeologiya markazi tomonidan Quvasoy shahridagi Namuna mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli Sufon mozor-qo'rg'onlarida arxeologik qazishmalar o'tkazildi. Qazishmalar natijasida qadimiy qabrlar o'rganilib, obyekt hududidan temirdan yasalgan pichoq, kamar to'kasi, sopoldan yasalgan ko'za, tuvak, kosa kabi uy-ro'zg'or buyumlari topilgan. Ushbu madaniy meros obyekti Moddiy madaniy merosning ko'chamas mulk obyektlarining milliy ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa-da, uning turizm yo'nalishida o'z o'rniga ega bo'lishi murakkab vazifaligicha qolmoqda.

Yuqori Muyantepa arxeologik yodgorligi Quvasoy-Sufon yo'lining chap terafidagi temir yo'ldan o'tadigan joyda Mmurodbaxsh ota qabristoni ichida joylashgan. Tepalik qisman buzilgan bo'lsa ham moddiy madaniy meros sifatida o'z qimmatini yo'qotmagan. Tepalikning diametri 50 metr bo'lib, uning balandligi 6 metrni tashkil etadi. Yodgorlikning relefi taxminan 800X200 metr joyni egallangan. Tepalik yonida ming yillar oldin yashab o'tgan Murodbaxsh ota qabri joylashgan. Qabriston hozirgi kunda ham faoliyat yuritmoqda. "Murodbaxsh ota" qabristoni mahalliy aholi tomonidan ziyoratgohga aylantirilgan bo'lib, ziyoratchilar uchun sharoitlar yaratilgan. Yodgorlik 1975–1976-yillarda Davlat ermitajining FAE arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. N. Gorbunova tomonidan arxeologik tadqiqotlar hisoboti va arxeologik xarita ishlab chiqilgan. 2013-yilda O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya institutining arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan qayta tadqiq etilgan. 2016-yilda Farg'ona davlat universitetining bir guruh mutaxasislari tomonidan o'rganilgan. Bu madaniy meros obyektida ham Farg'ona viloyat madaniy meros boshqarmasining ishchi guruhi tarixiy madaniy ekspertizani amalga oshirgan. 2022-yilning 5–15-oktabr kunlari o'tkazilgan ekspertiza xulosalariga ko'ra obyekt muhandislik kommunikatsiyalarining hech qaysi turi mavjud emasligi aniqlangan. Obyektning holatiga tabiiy sho'rlanish, nurash, zax chiqishi, zilzila, xashorot va termitlar salbiy ta'sir ko'rsatgan.[3:5]

Quvasoy shahrida joylashgan yana bir madaniy meros obyekti Katta Sufon yodgorligi deb ataladi. Sufon qishlog'ining shimoliy qismida joylashgan, to'g'ri to'rtburchak shaklida, shimoliy-sharq tomonga cho'zilgan. Qabriston bilan egallangan. "Katta Sufon" qadimiy tepaligida hajmi jihatidan katta qabrlar mavjud bo'lib, ushbu qabrlarga shu hududda yashagan fuqarolar dafn qilingan. Mahalliy aholidan olingan ma'lumotlarga qaraganda, ushbu yerga ko'milgan qadimgi odamlarning bo'ylari 10 metr atrofida bo'lganligi, qabrlarning qo'yilish holati ham o'zgachaligi hamda yodgorlikning nomlanishidagi "Katta" so'zi katta odamlar yashab o'tganligi uchun qo'yilganligi to'g'risida afsonalar xalq orasida mavjud. Haqiqatdan ham bu joy o'rganilganda "Katta Sufon" qadimiy tepaligidagi qabrlar nihoyatda katta ekanligi aniqlangan. Farg'ona viloyat madaniy meros boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan ekspertiza yodgorlik moddiy madaniy meros obyekti sifatida Respublika hamda viloyatimiz tarixi va madaniyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan obyekt ekanligi hamda ushbu yodgorlikni saqlab qolish uchun arxeologiya tadqiqoti o'tkazib, konservatsiyalash ishlari olib borish zarur ekanligi to'g'risida xulosalar berdi. Shuningdek, arxeologiya merosi obyektini muhofaza hududi bilan birga to'siqlar yoki sim to'rlar bilan o'rab olish zarur.

2022-yil 1–10-noyabr kunlari Quvasoy shahar Namuna mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan Sufon arxeologik yodgorligida Farg'ona viloyat madaniy meros boshqarmasi ishchi guruhi tomonidan obyektning tarixiy-madaniy ahamiyati, muhofaza qilinish ahvoli va texnik holati, obyektidan oqilona foydalanish va ularning samaradorligini, shu jumladan, turistik potentsiali hamda Milliy ro'yxatga kiritilishi yoki

chiqarilishi to'g'risida aniq xulosaga ega bo'lish maqsadida ekspertiza o'tkazildi. Ekspertiza natijasida obyektning texnik holati qoniqarli deb topilsa-da, ushbu arxeologik yodgorlik bo'yicha konservatsiya va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirish zarur. Xususan, Quvasoy shahrida joylashgan Yuqori Muyantepa, Arktepa, Oqtepa, Chuntepa, Qaramqul kabi arxeologik madaniy meros obyektlari ham arxeolog va etnograflar hamda mahalliy hokimiyat e'tiboriga muhtojdir.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar yutuqlaridan unumli foydalanish, loyihalash va restavratsiya ishlarida davlat nazoratini zamon talablari asosida qayta tashkil etishni taqazo etadi [1:17]. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilish, ularni ta'mirlash-tiklash, konservatsiyalash ishlariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi [4:5]. Quvasoy shahri hozirgi kunda sanoatning ko'plab sohalariga investitsiyalarni o'ziga jalb qilmoqda [6:1]. Shaharning turizm salohiyatining oshirishda madaniy meros obyektlarining o'rni beqiyosdir.

Albatta, bugungi kunda madaniy meros obyektlari turizm salohiyatini oshirish uchun bir qator imkoniyatlar yaratadi:

- Turistik yo'nalishlar: Farg'ona vodiysidagi madaniy meros obyektlari sayyohlar uchun qiziqarli yo'nalishlarni yaratadi. Har bir obida o'zining tarixi, arxitektura va san'ati orqali sayyohlarni jalb etadi.

- Madaniy tadbirlar: Madaniy meros obyektlarida o'tkaziladigan tadbirlar, masalan, xalq san'ati ko'rgazmalari, an'anaviy musiqa va raqslar, sayyohlarning qiziqishini oshiradi va har bir hududning madaniyatini tanitishga xizmat qiladi.

- Ta'lim va targ'ibot: Madaniy meros obyektlarining ahamiyatini tushuntirish maqsadida ta'lim dasturlari va qiziqarli ekskursiyalar tashkil etish, sayyohlar uchun yangi bilim va tajribalarni taklif qiladi.

- Iqtisodiy rivojlanish: Turizm rivojlanishi iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga va mahalliy aholi daromadining oshishiga olib keladi.

Farg'ona viloyatidagi madaniy meros obyektlari, nafaqat tarixi va madaniyati bilan, balki iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni bilan ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu obidalarni saqlash, rivojlantirish va sayyohlarni jalb qilish orqali Farg'ona viloyatining turizm salohiyatini oshirish mumkin. O'zbekistonning madaniy merosi, kelajak avlodlarga nafaqat tarixiy boylik, balki o'zining o'ziga xosligini va go'zalligini ham yetkazish vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.X.Shamsiyeva, B.S.Talabjonov Farg'ona vodiysida madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning turizm industriyasidagi o'rni(2016-2020-yillar). – Farg'ona: "Classic" nashriyoti, 2023.-108 b.

2. Farg'ona viloyati madaniy meros bos boshqarmasi joriy arxiv ma'lumotlari. 2023-yil.

3. Farg'ona viloyati madaniy meros bos boshqarmasi joriy arxiv ma'lumotlari. Quvasoy shahar moddiy madaniy meros obyektlari pasporti. 2022-yil.

4. Rasulov M. F. O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo'lgan munosabatning transformatsiyasi(1980–2019-yillarda) Avtoreferat. – Toshkent, 2020.-B.169.

5. Masurov M. SH. Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanish jarayonlari va holati(1980-2018-yillarda). Avtoreferat.- T., 2020.-B.50.

6. Farg'ona iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.// Xalq so'zi. 2024. № 141.